

PAPER

MILLIY TARBIYA G'OYALARINING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR BILAN UYG'UNLASHUVI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ostanova Ma'mura Ulug'bek qizi¹

¹Samarqand davlat universiteti, Intelktual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti uslubchisi

* ostanova98@gmail.com

Abstract

Maqolada milliy tarbiya g'oyalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi uyg'unlik masalasi yoritilgan. O'zbek milliy tarbiyasining tarixiy asoslari, asosiy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim metodlari tahlil qilinib, ular o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida kompetensiyalar shakllantirish, o'quv jarayoniga milliy komponentlarni integratsiya qilish, innovatsion texnologiyalar orqali tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Key words: Milliy tarbiya, zamonaviy pedagogika, qadriyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, o'quvchi shaxsiyati, integratsiya, ta'lim sifati.

Bugungi globallashuv va tezkor modernizatsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqayotgani shubhasiz. Biroq bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy va texnologik yutuqlarni, balki milliy madaniyatlar, urf-odatlar va qadriyatlar tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy merosini asrab qolish, uni yosh avlod qalbiga singdirish masalasi bugungi ta'lim-tarbiya tizimining dolzarb yo'nalishiga aylangan. Milliy tarbiya – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, urf-odatlari, axloqiy mezonlari va ma'naviy qadriyatlariga asoslangan holda shaxsni

shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Uning ildizlari qadimiy Sharq mutafakkirlarining, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mahmudho'ja Behbudi, Abdulla Avloniy kabi buyuk allomalarning tarbiyaga oid qarashlarida mujassam. Ularning asarlarida yoshlarga mehr-oqibat, adolat, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni singdirish asosiy vazifa sifatida ko'rsatilgan. Milliy tarbiya o'z mohiyati bilan shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlashda, uni milliy o'zligiga sodiq bo'lgan fuqaroga aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Compiled on: October 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Boshqa tomondan, XXI asr ta'limi yangi pedagogik yondashuvlarni talab etmoqda. Zamonaviy pedagogika shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, interfaol va innovatsion metodlar, STEAM va CLIL kabi konsepsiyalar orqali shaxsni mustaqil fikrlovchi, moslasha oladigan, ijodkor inson sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu yondashuvlar samaradorligi yuqori bo'lsa-da, ular ko'pincha milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilmagan holda joriy qilinmoqda, bu esa yosh avlod ongida begonalashuv va ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, milliy tarbiya g'oyalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, ularning bir-birini boyitish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va aniq ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqish bugungi kunda pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Ushbu maqolaning maqsadi – milliy tarbiya g'oyalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvini tahlil qilish, bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya g'oyalari zamonaviy, innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan samarali uyg'unlashtirish yo'llari va mexanizmlarining yetarlicha ishlab chiqilmaganidir. O'zbek milliy tarbiyasida quyidagi asosiy qadriyatlar markaziy o'rin egallaydi:

Hurmat – kattalarga, ustozlarga, ota-onaga hurmat ko'rsatish har qanday tarbiyaning asosidir. Bu qadriyat jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va ierarxiyani ta'minlaydi.

Vatanparvarlik – yurtga sadoqat, milliy o'zlikni anglash, xalq va davlat manfaatlarini yuqori qo'yish milliy tarbiyaning negizlaridan biridir.

Oilaparvarlik – oilani qadrlash, unga sodiq bo'lish, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash o'zbek tarbiyasida muhim axloqiy mezon hisoblanadi.

Odob – harakat va so'zda muloyimlik, halollik, poklik, diyonat, andisha kabi fazilatlar bolalikdan singdiriladi.

Mehnatsevarlik – haromdan tiyilish, mehnatga hurmat bilan qarash, mustaqil hayot kechirishga intilish qadimdan yosh avlodga uqtirilib kelinadi.

Ushbu qadriyatlar o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar va diniy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orqali shaxsning ijtimoiy, axloqiy va madaniy kamoloti ta'minlangan. Milliy tarbiyaning nazariy asoslarini chuqurroq anglash uchun o'zbek va turk dunyosi mutafakkirlarining pedagogik qarashlariga murojaat etish zarur.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, insonda ilm, odob, halollik va mehr-oqibat ustuvor bo'lishi kerak. "Mahbub ul-qulub" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida axloqiy-pedagogik g'oyalar chuqur ifodalangan.

Ahmad Yassaviy tasavvufiy g'oyalari orqali tarbiyada ruhiy poklik, sabr, tavoze, yetuk axloqiy kamolotga urg'u beradi. "Hikmatlar"da bu jihatlar tarbiya vositasi sifatida qaraladi. Mahmudxo'ja Behbudiy – jadid maktablarining asoschilaridan biri bo'lib, ma'rifatparvarlik va milliy uyg'unish g'oyalari ilgari surgan. U bolani har tomonlama rivojlantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rni haqida yozgan.

Abdulla Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", deb milliy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o'rnini ko'rsatib bergan.

Bu mutafakkirlar asarlari nafaqat tarixiy manba, balki bugungi tarbiyaviy ishlar uchun ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy pedagogik g'oyalarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, ularni interfaol, kreativ metodlar orqali taqdim etish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, Avloniy asarlarida keltirilgan axloqiy-odobiy darslar hozirgi kunda "hayotiy ko'nikmalar", "soft skills" yoki "axloqiy kompetensiyalar" shaklida qayta talqin qilinib, zamonaviy darslarda tatbiq etilishi mumkin. XXI asr ta'lim tizimi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, pedagogik jarayonda ilg'or, innovatsion yondashuvlarning joriy etilishini talab qilmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchini hayotga tayyorlash, unda amaliy ko'nikmalar va mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlar an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, o'quvchining shaxsiy

ehtiyojlari, qobiliyati va individual rivojlanish sur'atlarini inobatga oladi.

Zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri – bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limdir. Ushbu yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Ya'ni, o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki o'rgatish va tarbiyalash jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'quvchining individual imkoniyatlari va qiziqishlari;
- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'z-o'zini anglash va o'zini rivojlantirishga intilish.

Bu yondashuv orqali o'quvchida mustaqillik, mas'uliyat, tashabbuskorlik kabi shaxsiy fazilatlar rivojlanadi, bu esa milliy tarbiya maqsadlariga ham uyg'un keladi. Interaktiv metodlar esa o'quvchilarni faol fikrlashga, muhokamaga, guruhda ishlashga, muloqot qilishga undaydi. Bunga quyidagilar kiradi:

- "Aqliy hujum"
- "Rol o'ynash"
- "Debat"
- "Klaster"
- "Fishbone" va boshqalar

Ushbu metodlar milliy tarbiyaning asosiy jihatlaridan bo'lgan hurmat, fikr almashinuvi, hamkorlik, to'g'ri muloqot qilish madaniyatini ham rivojlantiradi. Zamonaviy ta'limda ilg'or texnologiyalar ham faol joriy etilmoqda:

Kritikal fikrlash (tanqidiy tafakkur) – o'quvchining axborotni tahlil qilish, baholash, asosli xulosa chiqarish va mustaqil fikr bildirish salohiyatini oshiradi.

Globalashuv jarayoni ta'lim-tarbiya tizimiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda bir tomondan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng tatbiq etilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy tarbiya tizimini asrab qolish va uni rivojlantirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Shuning uchun ham bugungi ta'lim siyosatida milliy tarbiya va zamonaviy pedagogika o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik va qarama-qarshiliklarni aniqlash, ularni uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Milliy tarbiya ham, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ham shaxsning har tomonlama

rivojlanishini o'z markaziga qo'yadi. Har ikkala tizimda ham quyidagi umumiyliklar mavjud:

Shaxsning rivojlanishi: Ikkala yondashuv ham insonni faqat bilimli emas, balki barkamol, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashni ko'zlaydi. Milliy tarbiya bu maqsadga axloqiy-me'yoriy qadriyatlar orqali erishsa, zamonaviy yondashuvlar kompetensiyalar va ko'nikmalar asosida amalga oshiradi.

Ijtimoiylashuv: Har ikki tizimda ham o'quvchi yoki shaxsni jamiyatga moslashtirish, ijtimoiy muhitda faol ishtirok eta oladigan darajaga olib chiqish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Qadriyatga asoslanish: Milliy tarbiya o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyatlari – hurmat, odob, vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik asosida shakllansa, zamonaviy pedagogikada ham ijtimoiy, madaniy va insoniy qadriyatlar (demokratiya, inson huquqlari, tenglik, barqarorlik va boshqalar) muhim o'rin egallaydi.

Shu o'rinda aytish joizki, milliy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasida komplementarlik (bir-birini to'ldirish) mavjud. To'g'ri uyg'unlashtirilgan taqdirda ular shaxs tarbiyasida kuchli samaradorlikka olib keladi.

Milliy tarbiya va zamonaviy pedagogika o'rtasida ayrim konseptual tafovutlar ham mavjud. Eng muhimlaridan biri – individuallik va kollektivchilik o'rtasidagi farqdir:

G'arbcha individuallik: Zamonaviy pedagogika, ayniqsa, G'arb modeli, shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, o'z manfaatlarini himoya qilish, individual qobiliyatlarni rivojlantirishga urg'u beradi. Bu yondashuvda "men" konsepti ko'proq ilgari suriladi.

Milliy kollektivchilik: O'zbek milliy tarbiyasi esa aksincha, shaxsni "biz" konsepti orqali tarbiyalaydi. Kattalarga hurmat, jamoadorchilik, oila, mahalla va millat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish singari qadriyatlar markaziy o'rin egallaydi.

Bu ikki yondashuv o'rtasidagi qarama-qarshilik noto'g'ri boshqarilsa, o'quvchilarda ruhiy konflikt, aralash madaniy identitet yoki begonalashuv holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida bu farqlarni hisobga olgan holda uyg'unlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Tarbiya va ta'lim bir-birini to'ldiruvchi, ammo ayrim hollarda maqsadlarida tafovut bo'lishi mumkin bo'lgan ikki xil pedagogik yo'nalishdir.

Milliy tarbiyaning asosiy maqsadi – komil, axloqan yetuk, jamiyatga foydali, milliy qadriyatlarga sodiq insonni shakllantirishdan iborat. U ko'proq axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratadi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi esa – raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, texnologiyalarga moslasha oladigan shaxsni tayyorlashga qaratilgan. Bu yondashuv ko'proq bilish faoliyati, kompetensiyalar, kasbiy tayyorgarlik kabi jihatlariga urg'u beradi.

Bu tafovut ayrim hollarda muvofiqlikda muammo tug'dirishi mumkin. Masalan, ta'lim texnologiyalariga haddan ortiq urg'u berilib, tarbiyaviy jihatlar e'tibordan chetda qolsa, yoshlar orasida individualizm, ma'naviy befarqlik, iste'molchi ong kabi holatlar kuchayishi mumkin.

Shunday qilib, milliy tarbiya va zamonaviy pedagogika o'rtasida muhim o'xshashliklar bilan bir qatorda, ayrim chuqur tafovutlar ham mavjud. Pedagogik tizimda bu farqlarni aniqlab, ularni to'g'ri uyg'unlashtirish – ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir. Maqolaning keyingi qismida aynan shu uyg'unlashtirishdagi muammolar va yechimlar tahlil qilinadi.

Milliy tarbiya g'oyalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash – ta'lim-tarbiya jarayonining izchil va samarali kechishini kafolatlaydi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nazariy asoslar bilan birga, aniq amaliy mexanizmlar va pedagogik strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Quyida shu boradagi asosiy yo'nalishlar va tavsiyalar keltiriladi:

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv ustuvor bo'lib, o'quvchilarda bilimdan tashqari hayotiy ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda milliy qadriyatlarni quyidagicha integratsiya qilish mumkin:

Vatanparvarlik kompetensiyasi – tarix, adabiyot va geografiya fanlari orqali milliy faxr tuyg'usini uyg'otish, tarixiy shaxslar hayotini kompetensiyaviy tahlil qilish orqali shakllantiriladi; Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya – o'zaro hurmat, muomala madaniyati, an'anaviy o'zbek odobi orqali mustahkamlanadi;

Madaniy ong kompetensiyasi – milliy urf-odatlar, til, kiyim-kechak, marosimlar orqali o'quvchining

o'zlikni anglash salohiyati rivojlanadi.

Buning uchun darslarda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, milliy obrazlarga oid keyslar, roliklar va badiiy asarlardan parchalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Milliy tarbiya g'oyalari innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, ularni zamonaviy o'quvchi uchun jozibador va ta'sirchan qilish imkonini beradi. Misollar:

STEAM loyihalar orqali o'quvchilar xalq hunarmandchiligi, ekologik qadriyatlar, mahalla hayoti kabi milliy mavzularda amaliy loyihalar tayyorlashlari mumkin;

CLIL texnologiyasi yordamida milliy madaniyatga oid mavzularni ingliz tilida o'qitish (masalan: "Uzbek national dishes", "Navruz traditions") orqali til o'rganish bilan birga milliy ongni rivojlantirishga erishiladi;

Digital storytelling (raqamli hikoya yaratish) – o'quvchilarning o'z oilaviy tarixlari, bobolar hayoti, mahalla qahramonlari haqida video yoki podkastlar tayyorlashi orqali tarbiyaviy ishlar innovatsion ko'rinishga ega bo'ladi.

Milliy tarbiyani samarali singdirish uchun dars jarayoniga interfaol metodlarni kiritish lozim. Bu metodlar o'quvchini faollashtiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va qadriyatlarni amaliy anglash imkonini beradi.

Darslik va o'quv materiallariga milliy komponentlar (ma'naviyat, tarix, madaniyat, axloqiy me'yorlar)ni kiritish orqali nafaqat bilim, balki tarbiya ham beriladi. Bu orqali o'quvchi uchun fan real va tanish bo'ladi, milliy identitet shakllanadi.

Uyg'unlikni ta'minlashda eng muhim omil – bu o'qituvchi shaxsidir. Agar pedagogning o'zi milliy qadriyatlarga sodiq va zamonaviy metodikaga ega bo'lsa, u bu uyg'unlikni amalda ta'minlay oladi. Shuning uchun:

O'qituvchilarni tayyorlash dasturlariga "Milliy tarbiya asoslari", "Mahalliy pedagogik meros", "Tarbiya metodikasi" fanlarini kiritish;

Malaka oshirish kurslarida zamonaviy texnologiyalar asosida milliy qadriyatlarga asoslangan treninglar o'tkazish;

Har bir fan o'qituvchisining milliy-tarbiyaviy yo'nalishda ishlashiga oid metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.

Shuningdek, tarbiya ishlari bo'yicha mas'ullar

uchun maxsus modul kurslar tashkil etish orqali ular faoliyatining zamonaviy va milliy integratsiyasi kuchaytiriladi.

Milliy tarbiya g'oyalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish — bugungi ta'limning ustuvor strategiyasidir. Bu uyg'unlik to'g'ri yo'lga qo'yilsa, nafaqat bilimli, balki milliy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar voyaga yetadi. Shu bois bu masala davlat siyosati, pedagogik nazariya va amaliyotda doimiy e'tiborda bo'lishi zarur. Milliy tarbiya va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, ayniqsa, globallashuv va tezkor modernizatsiya jarayonida alohida dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy qadriyatlari — hurmat, vatanparvarlik, odob, mehnatsevarlik, oilaparvarlik — har bir avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Bugungi ta'lim tizimi esa o'z oldiga nafaqat bilimli, balki zamon bilan hamnafas, innovatsion fikrlaydigan, lekin o'z milliy ildizlariga sodiq bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ygan. Shu bois, milliy tarbiya g'oyalari va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuvi — ta'lim mazmuni va sifati, shuningdek, tarbiyaviy samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Ikkala tizim orasida o'xshashliklar (shaxs rivoji, ijtimoiylashuv, qadriyatlarga asoslanish) mavjud bo'lishi bilan birga, ba'zi qarama-qarshiliklar (G'arbcha individuallik vs milliy kollektivchilik, tarbiya va ta'lim maqsadlaridagi farqlar) ham mavjud.

Ushbu farqlarni bartaraf etish va uyg'unlikni ta'minlash uchun ta'limda milliy qadriyatlar asosida kompetensiyalar shakllantirish, o'quv materiallariga milliy komponentlarni integratsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni tarbiyaviy maqsadga yo'naltirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya va zamonaviy pedagogika integratsiyasi — nafaqat an'anani saqlab qolish, balki uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish orqali kelajak avlodni har tomonlama tayyorlashning eng samarali yo'lidir. Bu integratsiya ta'lim sifatini oshirish bilan birga, jamiyatning ma'naviy barqarorligi va milliy mustaqilligi uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Qayta tahrirdagi yangi tahriri. — Toshkent: Adolat, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori. — 2023-yil.
3. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: "Ma'naviyat", 2021. — 256 b.
4. Karimov, N. O'zbek milliy tarbiyasi: ildizlar va istiqbollari. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — 180 b.
5. Qodirova, M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy qadriyatlar integratsiyasi // Pedagogik izlanishlar jurnali. — 2022. — №3. — B. 45–52.
6. Jalolov, J. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan, 2020. — 320 b. словарь русского языка [Phraseological dictionary of the Russian language]. AST Press.